

“GULISTON BIT-TURKIY” ASARIDA KELISHIKLAR KATEGORIYASI

Andaqlova Komila Farhod qizi

Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati insituti

301-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada eski o‘zbek tili grammatikasining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan kelishiklar tizimi va ularning XIV–XV asrlar yozma yodgorliklaridagi lisoniy xususiyatlari tadqiq etiladi. Xususan, Sayfi Saroyining «Gulistoni bit-turkiy» asari misolida kelishik affikslarining variantiyiligi, ularning o‘g‘uz va qipchoq lahjalari bilan bog‘liqligi hamda tarixiy taraqqiyot bosqichlari tahlil qilingan. Maqolada vosita kelishigining iste‘moldan chiqishi, jo‘nalish kelishigining arxaik shakllari va olmoshlarda kelishik qo‘shimchalarining orttirma tovushlar bilan qo‘llanishi kabi morfologik hodisalar dalillangan.

Kalit so‘zlar: eski o‘zbek tili, Sayfi Saroyi, kelishiklar, morfologiya, «Gulistoni bit-turkiy», tarixiy grammatika, affiks, lisoniy evolyutsiya.

Аннотация: В данной статье исследуется система падежей старого узбекского языка и их лингвистические особенности в письменных памятниках XIV–XV веков. В частности, на примере произведения Сайфи Сарая «Гулистони бит-турки» анализируется вариантность падежных аффиксов, их связь с огузскими и кипчакскими диалектами, а также этапы исторического развития. В статье обоснованы такие морфологические явления, как выход из употребления творительного падежа, архаичные формы дательного падежа и использование падежных окончаний с приращением звуков в местоимениях.

Ключевые слова: старый узбекский язык, Сайфи Сарая, падежи, морфология, «Гулистони бит-турки», историческая грамматика, аффикс, лингвистическая эволюция.

Abstract: This article examines the system of cases in the Old Uzbek language and their linguistic features in the written monuments of the 14th–15th centuries. In particular, using the example of Sayfi Sarayi’s work “Gulistoni bit-turkiy,” the variation of case affixes, their connection with Oghuz and Kipchak dialects, and the stages of historical development are analyzed. The article substantiates morphological phenomena such as the decline of the instrumental case, archaic forms of the dative case, and the use of case endings with incremental sounds in pronouns.

Keywords: Old Uzbek language, Sayfi Sarayi, cases, morphology, “Gulistoni bit-turkiy,” historical grammar, affix, linguistic evolution.

Kelishiklar gapda otning yoki otlashgan soʻzning feʼlga, baʼzan boshqa soʻz turkumiga munosabatini ifodalaydigan formalardir. Eski oʻzbek tilida hozirgi oʻzbek tilidagidek, 6 ta kelishik shakli saqlangan. Turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi davrlari uchun xarakterli boʻlgan vosita kelishigi shakli XIII–XIV asrlarga oid yozma yodgorliklar tilida ham maʼlum darajada qoʻllangan. XV asr va undan keyingi davrlarda vosita kelishigining qoʻllanishi ancha chegaralangan boʻlib, oʻzining grammatik xususiyatini yoʻqotgan va kelishik kategoriyasi sifatida isteʼmoldan chiqqan. Shu davrdan boshlab vosita kelishigi shaklida qoʻllangan soʻzlar ravish kategoriyasiga oʻtgan yoki oʻtish jarayonida boʻlib, payt, holat kabi maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladi:

Ah urub, faryod etar-men sensizin (Lutfiy).

Bolsa jannatda Atoyi sensizin, qilgʻay figʻon (Atoiy). (1/109-bet).

Eski oʻzbek tilida quyidagi oltita kelishik amalda boʻlgan: Bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, joʻnalish kelishigi, oʻrin-payt kelishigi, chiqish kelishigi. (2/83-bet).

Eski oʻzbek tilidagi baʼzi kelishiklarni Sayfi Saroiyning “Guliston bit-turkiy” asari misolida koʻrib chiqamiz. Shoirning «Gulistoni bit-turkiy» asari katta adabiy yodgorlik, qadimgi turkiy tilni oʻrganishda muhim manbadir. Uning yagona qoʻlyozmasi Gollandiyadagi Leyden universiteti kutubxonasida saqlanadi. Bu qoʻlyozmaning fotonusxasi Moskva va Toshkentda mavjud. «Suhayl va Guldursun» dostoni qoʻlyozmasi esa Oʻzbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Sayfi Saroyi ijodida «Gulistoni bit-turkiy» asari muhim oʻrin tutadi. Shoir 1390-1391-yillarda Misrda Saʼdiy Sheroziyning «Guliston» asarini fors tilidan oʻzbek tiliga birinchi boʻlib erkin tarjima qilib, nisbatan yangi, falsafiy-axloqiy «Gulistoni bit-turkiy» asarini yaratadi. Tarjima jarayonida Sayfi Saroyi “Guliston”dagi ayrim parchalarni tushirib qoldiradi, baʼzi sheʼrlarni ijodiy qayta ishlaydi. (3,110-bet).

Bu Gulshangʻa tamosho qilgʻan er,

Dam-badam maʼni emishin toza er (4,170-bet).

Ushbu baytda Gulshangʻa soʻzida joʻnalish kelishigining tarixiy varianti uchraydi. -gʻa/ -ga // -qa/ -ka affiksli shakl eski oʻzbek tilida joʻnalish kelishigining asosiy shaklini tashkil etadi. Bu affiks shakllaridan qaysi birining ishlatilishi asosan shu affiksni qabul qiluvchi soʻzning xususiyatiga bogʻliq: -gʻa shakli, odatda, unli yoki jarangli undosh bilan tugagan qattiq oʻzakli soʻzlarga qoʻshiladi. (2/91-bet).

Oʻzina boʻlib muborak bu kitob,

Doim olsun naf mundan shayxu shob (4,172-bet).

Koʻrishimiz mumkinki, yuqoridagi sheʼriy parchada joʻnalish kelishigining yana bir tarixiy varianti **oʻzina** soʻzining tarkibida qoʻllangan. -a/-ä kelishigining bevosita soʻz boshiga qoʻshilib kelishi 13- va 14-asrlarda sheʼriy ham nasriy asarlarda uchraydi. 1-va 2-shaxslarning birligi asosida hosil boʻluvchi shakllar asosan sheʼriy asarlarda

uchraydi, 3-shaxs birlik va ko'pligi asosida hosil bo'luvchi shakl esa she'riy asarlarda ham, nasriy asarlarda ham qo'llangan. Jo'nalish kelishigining -a/-a affiksli shakli o'g'uz guruhidagi turkiy tillar uchun xos bo'lib, bu tillarda qadimgi davrlardan boshlab jo'nalish kelishigi uchun shu shakl qo'llanadi (unli bilan tugagan so'zlarga ya/ya shaklida qo'shiladi). Bu shakl hozir ayrim o'zbek shevalarida, masalan, Xorazm shevalarining o'g'uz guruhida va j-lovchi o'zbek shevalarida ham mavjud.(2/94-bet). Bulamizki Sayfi Saroyi asli Xorazmlik ijodkor bo'lib, o'g'uz lahjasi vakili hisoblanadi.

Ketsa jahon viloyatin tark etib humoy,

Boyqush ko'lankasina kishi kelmagi muhol (4, 175-bet).

Viloyatin so'zida -n affiksli shakl ham tushum kelishigining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida turkiy tillarda qadimdan qo'llanib keladi. Hattoki O'rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida ham bu affiks 1- va 2-shaxs shaklidagi so'zlarga ham qo'shilgan o'rinlari mavjud. Masalan, Bū sabimin ešit. Bu affiks eski o'zbek tilida ham ancha faol qo'llanilib, 3-shaxs egalik shaklidan keyin qo'shilgan. Asosan she'riy asarlarda ko'p uchraydi. Viloyat(asos)+i(3-shaxs egalik shakli)+n(tushum kelishigi).

Ey davlat ichinda yoq tengi, moli cho'q,

Qayg'ung yoq esa, menim dag'i qayg'um yo'q (4,183-bet).

Ushbu baytda ishtirok etgan menim olmoshi qaratqich kelishigi bilan birga qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Bir qarashda ilmiy tadqiqotlarda eski o'zbek tilida -im affiksini qaratqich kelishi vazifasini bajargan o'rinlarni topish mushkul. Lekin so'zimizning isboti o'laroq Abdulla Oripovning "O'zbekiston" qasidasidagi ushbu misralarga yuzlanamiz: Faqat ojiz qalamim manim, O'zbekiston, Vatanim manim.(5, 3-bet).

Qandakim totli suv oqar bo'lsa,

Qurt-u qush, baliq and andin eksilmas (4, 184-bet).

Jarangli -din/-dīn yoki jarangsiz -tin/-tīn variantlarda ishlatilishi ham o'rin-payt kelishigi affiksining jarangli va jarangsiz shakllarda ishlatilishidagi kabi tartibda bo'lgan, ya'ni unli yoki jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga jarangli -din/-dīn shakllari qo'shiladi. Andin olmoshida chiqish kelishigining -din formasi, yani til oldi varianti qo'llangan bo'lib, o'zak qismi bir tovushdan iborat bo'lgan olmosh bo'lganligi bois bitta n fonemasining ortishi natijasida kelishikning jarangli varianti qo'llanilgan.

Xulosa qilib aytganda, eski o'zbek tilining kelishiklar tizimi turkiy tillarning tarixiy taraqqiyoti va lisoniy evolyutsiyasini o'rganishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Sayfi Saroyining «Gulistoni bit-turkiy» asari tili tahlili shuni ko'rsatadiki, XIV asr oxiriga kelib kelishik ko'rsatkichlari nafaqat grammatik munosabatlarni ifodalash, balki muayyan sheva (o'g'uz va qipchoq) xususiyatlarini ham o'zida saqlab qolgan. Ayniqsa, jo'nalish kelishigining -ğa/-gä bilan bir qatorda -a/-ä shaklida qo'llanishi, tushum kelishigining -n varianti hamda qaratqich

kelishigidagi -im affiksi kabi tarixiy formalar o‘zbek adabiy tilining shakllanish jarayoni naqadar murakkab va boy bo‘lganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdushukurov B. Eski o‘zbek til. Toshkent: Nodirabegim, 2021-yil, 331 bet.
2. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008-yil, 527 bet.
3. Saidov Y. O‘zbek adabiy tili tarixi. Buxoro: Durdona, 2019-yil, 164 bet.
4. Sayfi Saroyi Guliston bit-turkiy. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1986-yil, 386 bet.
5. Oripov A. Saylanma. Toshkent: Tafakkur qanoti, 2018-yil, 217 bet.